

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL KOMPETENSIYALARNI TADBIQ ETISH

Hamdamova Manzura Zuvaydillayevna.

“Antik dunyo” xalqaro akademiyasining professori,
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi,
“Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari”
kafedrasining professori

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan maqola, o'zining kasbiy malakasini oshirishib boruvchi maktabgacha ta'lim muassasalari tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarga mo'ljallangan bo'lib, global kompetensiyalarni bu boradagi bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda, milliy qadriyatlar asosida umuminsoniy fazilatlarini va ta'limiy tamoyillarni rivojlantiruvchi metodlardan foydalanishi mumkin.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, ilm-fan, konsepsiya, kompetensiya, maktabgacha ta'lim, insonparvarlik, milliy qadriyatlar, metod, rivojlantirish.

АННОТАЦИЯ: Данная статья, имеющая научное, теоретическое и практическое значение, предназначена для работников системы дошкольных образовательных учреждений, повышающих свою профессиональную квалификацию и умеющих использовать методы, развивающие общечеловеческие качества и принципы воспитания, основанные на национальных ценностях, применять знания глобальных компетенций в данной сфере.

Ключевые слова: образование, наука, концепция, компетентность, дошкольное образование, гуманизм, национальные ценности, метод, развитие.

ANNOTATION: This article, which has scientific, theoretical and practical significance, is intended for employees working in the system of preschool educational institutions who are improving their professional skills and can use methods that develop universal human qualities and educational principles based on national values, in applying knowledge of global competencies in this area.

Key words: education, science, concept, competence, preschool education, humanitarianism, national values, method, development.

Ta'lim va tarbiya jarayoni har bir inson hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishi yoshga oid psixologik xususiyatlar va shaxsiy taraqqiyot qonuniyatlarini chuqur bilishga bog'liqdir. Shu jihatdan, yosh va pedagogika psixologiya fanlari ta'lim-tarbiya tizimining ilmiy asoslari bo'lib xizmat qiladi. Bu esa maktablarda fanlar orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini o'rgatsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni ilk o'rgatish davrida bolalarni emotsional rivojlanishi, motivatsiyasi, shaxslararo munosabatlari va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini chuqur o'rganiladi. Bu jihatlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonida uzluksiz ta'lim konsepsiyasiga amal qilish muhimdir.

Chunki, ta'lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash konsepsiyasi maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbiy va oliy ta'lim turlari ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan asosiy ko'nikma va qadriyatlar tarkibini, shuningdek, ta'limdagi uzviylik va uzluksizlikning maqsadi, vazifalari, prinsiplari hamda ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. **Konsepsiya** — islohotlar, dasturlar, loyihalar va rejalarini amalga oshirishda harakatlar strategiyasini belgilaydigan tushuncha. Konsepsiya fan yo'nalishlari o'rtasida o'zaro integratsiyani, uzviylik va uzluksizlikni, ta'lim oluvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma,

qadriyatlarni rivojlantirishga, o'quv dasturlari mazmunini milliy hamda xalqaro talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan. **Kompetensiya esa** — bu shaxsning muayyan faoliyat turini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Ana shu majmuani amaliyotga tatbiq etish maqsadida qator Farmonlar qabul qilingan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashni maktabgacha ta'lim tizimidan boshlash ayni muddadir!

birinchidan, erkin fikrlovchi shaxsni, mamlakat istiqbolini o'z kelajagi bilan uyg'un ko'radigan, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy jarayonlarda faol qatnashadigan avlodni shakllantirish uchun imkoniyat yaratish;

ikkinchidan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayoni bilan bog'liq holda siyosiy va huquqiy madaniyatni shakllantirish, shaxsning ichki dunyosini rivojlantirish asosida ijtimoiy qadriyatlarni va munosabatlarni shakllantirish;

uchinchidan, ta'lim, tarbiya va ilm-fan taraqqiyotini ta'minlash orqali ijtimoiy, g'oyaviy, mafkuraviy barqarorlikni, tinchlikni ta'minlashga erishish. Mazkur vazifalar davlat va jamiyat taraqqiyotining istiqboli bilan bog'liq murakkab jarayondir.

Bugungi globallashuv jarayonlari davrida barcha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlari, shu jumladan uzluksiz ta'lim tizimining doimiy e'tiborida bo'lishini taqozo etadi. Ko'rsatib o'tilgan vazifalarning amaliyoti quyidagilardan iborat:

- birinchidan, kadrlarni tarbiyalash jarayonida umuminsoniy tamoyillar ustuvorligini e'tirof etgan holda xalqimiz milliy mentaliteti, sharqona jamoaviylik tamoyillari asosida milliy tarbiyaning ustuvorligi va shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlash;

- ikkinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi, uni amalga oshirish mexanizmlarini tubdan o'zgartirish, muayyan maqsadga qaratilgan ma'naviy tarbiyaning uzluksizligi, tizimlilikini ta'minlash;

- uchinchidan, ta'lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirish jarayonini amalga oshirishda xalqaro hamda milliy tajribalarning uyg'unligini ta'minlashga erishish; - to'rtinchidan, fan, texnika va texnologiyaning hozirgi zamon yutuqlari talablariga mos, xalqimizning boy ma'naviy-tarixiy merosini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish;

- beshinchidan, global tahdidlarga faqat ilm-fan va ta'lim tizimi yordamida javob qaytarish mumkin. Boshqacha aytganda, jaholatni ma'rifat bilan yengish va unga qarshi kurashish mumkinligi tobora oydinlashib bormoqda.

Buning uchun esa milliy g'oya asosida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, millatparvarlik, xalqparvarlik kabi bir qator tamoyil va omillarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Yuqorida sanab o'tilgan omillarni maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlash, milliy qadriyatlarni shakllantirish, maktabda ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ta'limning sifati jamiyatni rivojlantiruvchi omil va uni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ta'lim qashshoqlik,

muhtojlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashishda amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Ta'lim dunyoqarashni shakllantirish, insonning turmush tarzini tanlashi va yaxshilanishini kengaytirishga yordam beradi, inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatish mexanizmiga aylanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash, rivojlantiruvchi xavfsiz muhitni yaratish bolalarda erta yoshdan atrof-muhitni kuzatishi va anglashi, bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratadi. Turli guruhlarda bolalar yosh xususiyatini inobatga olgan holda beshta asosiy rivojlanish markazlari har xil o'quv-metodik majmualar, ko'rgazmali va didaktik materiallar, multimedia vositalari, zamonaviy o'yin to'plamlari bilan jihozlanadi.

Guruhda bolalarning manfaatlari va ehtiyojlari, guruhning bo'sh makoni va tashkilotning moddiy-texnik imkoniyatlariga ko'ra boshqa rivojlanish markazlarini ham tashkil etish mumkin. Bunday markazlar vaqtinchalik yoki faqat bolalar faoliyatining maxsus turlari (qum va suv, pazandachilik, musiqa markazi) uchun tashkil etilishi mumkin. Bolalar faoliyatining muayyan amaliy turlari uchun imkoniyat yaratishda suv o'yinlari va tajribalar, loydan pirog va boshqa narsalar yasash, yog'ochdan narsalar yasash, qo'g'irchoqlarni yotqizish kabi amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Shuningdek, ularga syujetli-rolli o'yin, rasm chizish, rasmga olish, tildan foydalanish va qurilish bloklari kabi yangi tajribalarni mavjud tizimga integratsiya qilish va amalda qo'llash uchun turli usullardan foydalaniladi. Shu bilan birga, bolalar yoshiga mos xavfsiz, ergonomik, ekologik toza mebel, jihozlar bilan ta'minlash talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining interyeri va hududiy infratuzilmasi bolaning rivojlanishi, atrof-muhitni kuzatish orqali ta'lim va ma'lumot olish manbai sifatida xizmat qilishi lozim. Binolarning ichki dizayni bolalar yoshiga mos ravishda tabiatga yaqin yorqin ranglar, tabiiy shakllar va materiallardan foydalangan holda shakllantirilishi kerak. Devorlar bolalarning dunyoqarashini kengaytiruvchi vizual axborotlar, fasllar, hayvonot va o'simliklar olami aks ettirilgan ko'rgazmali elementlar bilan bezatilishi tavsiya etiladi.

Har bir mashg'ulot (guruh) xonasi bolalarning erkin harakatlanishi, mustaqil o'ynashi, ijod qilishi va tajriba o'tkazishga undashi lozim. Jihozlar ergonomik va modulli bo'lib, sanitariya-gigiyena qoidalariga to'liq javob berishi lozim. Hovli hududidagi o'yin maydonchalari milliy qadriyat va an'analarga asoslangan tabiat manzaralari aks etgan, turli tabiiy elementlar bilan boyitilgan bo'lishi lozim. Hovlidagi yozgi ayvonchalar himoya devorlari bilan xavfsiz qilib o'ralgan, yo'laklar, dam olish, o'yin maydonchalari bolalar yoshiga mos ertak qahramonlari haykalchalari bilan jihozlanishi hamda qum maydoni, quyosh va soya balansini ta'minlovchi soyabonlar bo'lishi lozim. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ekranlar, maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual kontentlardan samarali foydalanish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim guruhlari tashkil etilishi hamda ular moslashtirilgan zarur jihozlar bilan ta'minlanishi lozim. Mashg'ulot (guruh) xonalarida maxsus pedagog xizmat faoliyatini olib borishi har bir bola ishtirok eta oladigan muhit yaratilishi va barcha jarayonlarda inklyuziv yondashuv saqlanishi lozim. Zaruratga ko'ra, bola rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, inklyuziv yo'nalishda bolaning yakka tartibdagi moslashtirilgan rejasi ishlab chiqiladi. Bunda, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning ta'lim olishi, rivojlanishi, ishtiroki va farovonligi uchun barcha mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etadigan rivojlantiruvchi ta'lim muhiti va o'qitish usullarini moslashtirish zarur.

Umuman, muayyan bir mamlakat doirasidagi ta'lim jarayonini isloh etishning har qaysi modeli universal darajaga ko'tarilishga da'vo qilishi mumkin emas. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh etish dasturini joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan barcha ishlar, birinchi navbatda, mamlakatimizning uzoq muddatli manfaatlari, hozirgi rivojlanish bosqichining mavjud holati va xususiyatlariga javob beradi. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi har tomonlama shakllangan intellektual kadrlarni tayyorlash, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada yuksaltirish va O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirish bilan bog'liq ishlarni yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar va tatbiq etilishi lozim bo'lgan tavsiyalar jamiyat taraqqiyotini ko'proq inson ma'naviy omili bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston bu borada erishgan yutuqlarning asosiy mezonini ham inson omiliga alohida e'tibor qaratilganligi bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, inson omili, milliy qadriyatlar ta'lim va ilm-fan tadqiqotlari uchun investitsiyalar, ta'lim rivojiga qaratilgan davlat xarajatlarining darajasi, umuman, ta'lim tizimining holati O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va innovatsion salohiyatining eng kuchli tomonlaridan biri ekanini alohida ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda 5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrda 6097-son. 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyulda 200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qarori.
7. . Valiyeva F.R., Sharipova G.N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations//International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022
8. Abdullayeva N.Sh. Leader competency and its specific characteristics in managing the school education system// American Journal Of Social Sciences And Humanity Research eISSN:2771-2141Pages:152-158|Crossref DOI:<https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-23> Published Date: 2024-02-29<http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/2548>
9. Abdullayeva N.Sh. Improving the preschool education system on the basis of cluster technologies// Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation, B. 36872-36886 2021 y